




7+



Arxitektor



UO'K...
KBK...
M..




Aziz bolajonlar va hurmatli ota-onalar!
Ushbu mo'jaz kitobimiz bolajonlarga kelajakda
kasb tanlashga yaqindan yordam beradi.
Rasmlar esa ularning tasavvurini boyitadi.




Maroqli mutolaa tilaymiz.



ISBN ...



© M. Mamadaliyev, 2024
© "Shimol yog'dusi", 2024






Men kim bo'lmoqchiman?

Mening ismim Sardor. Men kelajakda arxitektor bo'laman. Nega men bu kasbni tanladim? Sababi, ota-onam bilan ko'p sayr-u sayohat qilamiz. Qadimiy binolar, madrasalar, masjidlar, ko'priklar, osmono'par imoratlarni ko'rganman va menda ham bu kasbga qiziqish uyg'ongan.

O'yinchoqlarim orasida legolarim juda ko'p. Men ulardan yangi binolar, ko'priklar, uylar yasayman. Bu menga zavq bag'ishlaydi.



Arxitektorlar kimlar? Arxitektor - bino va inshootlarni loyihalovchi mutaxassis. Ya'ni ular yangi uy, bino va inshootlarning chizmalarini chizadilar. Shuningdek, me'mor deb ham ataladilar.



Arxitektor bo'lish uchun Arxitektura institutida ta'lif olinadi. Arxitektorlar geometriya, matematika, fizika, kimyo, tarix, geologiya kabi ko'plab fanlarni bilishi kerak. Shuningdek, ular turli tillarni bilishsa, xorijiy davlatlarga borib tajriba olib keladilar.



Birinchi binolar Qadimgi Rim, Misr, Yunoniston
Bkabi davlatlarda mahobatli qilib qurilgan. Keyin-
chalik shaharlar bunyod etilgan. Ilk arxitektorlar sifati-
da Leonordo da Vinchi, Mikelanjelo kabi tarixiy shaxs-
larni aytish mumkin. Ular arxitektura sohasiga katta
hissa qo'shganlar.



Vatanimizda ham arxitektura juda taraqqiy etgan sohalardan bo'lgan. Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Xiva, Shahrisabz va Toshkent kabi shaharlarda o'z davrining noyob yodgorligi - tarixiy binolar qad rostlagan. Bu, albatta, quruvchi-me'morlarning bunyodkorlik ishlaridir.



Ayniqsa, buyuk bobomiz Amir Temur davrida Anoyob tarixiy binolar qurilgan. Samarqand mamlakat poytaxti bo'lgan. U yerda ko'plab mamlakatlardan elchilar kelishgan. Hatto Shahrисabz shahrida Oqsaroy majmuasida shunday yozuvlar bor: "Agar bizning qudratimizga shubha qilsang, biz qurgan imoratlarga boq".



Mustaqillik yillarida arxitektorlarga talab yuqori bo'lgan va hozirgi kunda ham arxitektorlik kasbi eng yaxshi va qiziqarli kasb sanaladi. Bu davrda ham ko'plab binolar, uylar, shaharlar, ko'priklar, maktablar, institutlar, kollej va litseylar, masjidlar qurildi. Ayniqsa, poytaxtimiz Toshkentda ko'plab imoratlar qad rostladi. Oliy Majlis binosi shaharning markaziy binolaridan biri sifatida baholanadi. Bu binoda ko'plab quruvchilar va arxitektorlar xizmat qilishgan.



Arxitektorlik kasbi qiziqarli bo'lishi bilan birga, ajuda mas'uliyatli va javobgarligi yuqori. Sababi, arxitektor qurgan bino uzoq yillar odamlarga xizmat qilishi, qulayligini ta'minlashi hamda zilzilalarga bardosh berishi kerak.




Uylar va binolar qurilishida arxitektorning yolg'iz o'zi mehnat qilmaydi. Bino qurishda turli kasb va hunar egalari arxitektorga yordam beradi. Arxitektor qurilish loyihasini ishlab chiqadi. Binoning rasmini chizadi va har bir o'lchamlarini hisobga oladi. Uyning dizayni ustida bosh qotirish ham arxitektorlar zimmasida bo'ladi.



Qurilish jarayonida arxitektor texnik mashinalarni, ko'plab quruvchi ustalarni, qurilish materiallarini nazorat qiladi va boshqaradi. Binoning qaysidir qismi qiyshiq qurilsa, uni buzdirib, qaytadan qurdiradi. Bu qurilayotgan uyning mustahkamligi uchun foydali bo'ladi.



Har bir kasbda bo'lgani kabi arxitektorlar uchun ham kasbiy qiyinchiliklar bor. Birinchi navbatda qurilayotgan binoning sifati muhim. Ikkinchidan, arxitektor bino qurishga buyurtma bergan shaxs yoki tashkilotning ishonchini oqlashi kerak. Uchinchisi - binoni kechiktirmasdan o'z vaqtida qurib, foydalanishga topshirishi.



Suningdek, ko'priklarni loyihalash ham arxitektorlarning ishidir. Ular ko'priklar qurilishi uchun loyihamalar ishlab chiqadi va quruvchilar bilan birga ko'prik bunyod etadi.



Arxitektor yana zavod va fabrikalarning ham Aloyihasini ishlab chiqadi. Ular tarixiy binolarni ta'mirlash, asil holatida saqlashda ham yordam beradi.



Ҳозирда Toshkent shahrida va viloyatlarda arxitektorlar boshchiligidagi katta qurilish ishlari ketmoqda. Yangi turar joy manzillari, o'yingohlar, savdo markazlari, mакtablar qad rostlamoqda. Ayniqsa, osmono'par binolar ko'paymoqda. Bu esa mening arxitektor kasbiga bo'lgan qiziqishimni yanada oshiradi. Men kelajakda albatta arxitektor bo'laman.